IJTIMOIIY XIZMATLAR KO‘RSATISH JARAYONIDA TASHKILIIY VA IQTISODIY MUNOSABATLAR	775
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSION BIZNESNI BOSHQARISH VA YANGI TEXNOLOGIYALAR ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	780
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o‘g‘li	
GRUZIYA TAJRIBASIDA BARQAROR TURIZMNI TA‘MINLASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI VA ULARNING O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLANILISHI.....	786
Suyunova Dilnoza Mexridin qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNING MINTAQADA XIZMAT KO‘RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI XUSUSIYATLARI	790
Fayziyeva Shirin Shodmonovna	
QORAQALPOG‘ISTON HUDUDIDA ETNOGRAFIK TURIZM KLASTERINI SHAKLLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	795
Kunnazarova Orazxan	
MAMALAKATIMIZ IMPORTI VA EKSPORTIDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI	798
Jo‘rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
YEVROOBLIGATSIYA VA UNING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TOMONIDAN EMISSIYASI	807
Avezov Ibrohim Ilxomovich	



IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION O'ZGARISHLAR SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	808
<i>Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi</i>	
SPORT ANJOMLARI SANOATIDA INNOVATSION JARAYONLARNI TIZIMLASHTIRISH MODELINING ZARURATI.....	813
<i>Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich</i>	
GREEN MARKETING STRATEGIES AND THE APPLICATION OF NEUROMARKETING METHODS IN THEIR DEVELOPMENT.....	819
<i>Samadov Asqar Nishonovich, Latipova Go'zal</i>	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA KICHIK KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	825
<i>Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi</i>	
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA INVESTITSİYALAR AHAMIYATINING EMPERIK TAHLILI	831
<i>Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li</i>	
YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MEHMONXONALAR ROLI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.....	840
<i>Raxmonova Nigina Anvarovna</i>	
IJTIMOY SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTONNING AMALIY YONDASHUVI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	844
<i>Bafoyev Farrux Jo'raqulovich</i>	
AHOLI IJTIMOY HIMOYASINI KUCHAYTIRISH MUAMMOLARI	852
<i>Ulashev Xubbim Askarovich</i>	
YASHIL TA'LIM RIVOJLANISH BOSQICHLARI: YAPONIYA MISOLIDA	856
<i>Raxshona Nabibullayeva</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON SAVDONING MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI.....	861
<i>Mo'minov Yahyobek Shokirjon o'g'li</i>	
TUROPERATORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	865
<i>Toshev Akmal Salimovich</i>	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQADA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	874
<i>Quldasheva Maftuna Musurmon qizi</i>	
ФАКТОРЫ И МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	878
<i>Алиева Эльнара Аметовна, Рахматхонов Саидодилхон Расулхон угли</i>	
МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В СТРАНАХ С РАЗВИВАЮЩЕЙСЯ ЭКОНОМИКОЙ: РОЛЬ ESG-ИНСТРУМЕНТОВ, ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ РЫНКА ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И МАЛАЙЗИИ.....	884
<i>Нарзуллаева Мехрангиз Акобировна</i>	
DORIVOR O'SIMLIKLAR SAVDOSIDA QIYMAT ZANJIRI TAHLILI: IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....	893
<i>Maftuna Ermatova Arslonbek qizi</i>	
O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON O'RTASIDAGI SAVDO AYLANMASI TAHLILI	899
<i>Voxidova Mehri Xasanovna</i>	
GLOBAL KOMPANIYALARDA RAQAMLI MENEJMENTNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	905
<i>Axmedov Sardor Shuxrat o'g'li</i>	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.....	912
<i>Jumanazar Xolmuminov</i>	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI	916
<i>Kalandarova Elnura Muzaffar qizi</i>	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNING INVESTITSİYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	921
<i>Rahmatullayev Bobir Chorshamiyevich</i>	



FINANCING WATER RESILIENCE: A FEASIBILITY ANALYSIS OF SOVEREIGN BLUE BOND ISSUANCE IN UZBEKISTAN.....	926
Yakubov Jakhongir	
УКРЕПЛЕНИЕ ПАРТНЁРСТВО И СОЗДАНИЕ ЕДИНСТВЕННОГО ЭНЕРГОРЫНКА В УЗБЕКИСТАНЕ.....	929
Каримова Нуржохон Олим кизи	
ИННОВАЦИОННАЯ ЗРЕЛОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ МОДЕЛИ.....	935
Алиева Эльнара Аметовна, Табаков Евгений Сергеевич	
"BUDJET JARAYONLARIDA XAVFLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH: ICHKI AUDIT YONDASHUVLARI".....	941
Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna, Nishonxo'djaev Bekzod Baxodir o'g'li	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA DAVLATNING ROLI.....	947
Raximov Bahromjon Ibroximovich	
O'ZBEKISTONDA SUT SEKTORINING QIYMAT ZANJIRINI SANOATLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	951
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBIDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYA TIZIMLARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI.....	955
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi	
АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ.....	961
Ариф Мустафаев	
ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....	968
Ишонкулова Феруза Асатовна	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
Gavhar Bekmurodova Adham qizi	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna	
JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUUDUDIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	



HUDUDIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI

Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li

Sammarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida hududiy rivojlanish jarayonida soliq imtiyozlarining aholi daromadlari dinamikasiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida 2019-2023-yillar uchun rasmiy statistik ma'lumotlar asosida aholi jon boshiga daromadlarning hududlar kesimidagi o'zgarishlari baholanib, ularning iqtisodiy faollik, bandlik darajasi va investitsiya jarayonlari bilan o'zaro bog'liqligi aniqlangan. Shuningdek, hududlarda qo'llanilayotgan soliq imtiyozlarining daromadlar o'sishini rag'batlantirishdagi roli hamda ularning hududlararo nomutanosibliklarni kamaytirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Aholi daromadlari, soliq imtiyozlari, hududiy rivojlanish, hududiy siyosat, daromadlar dinamikasi, investitsiya faolligi, bandlik.

Abstract. This article examines the impact of tax incentives on the dynamics of population income within the framework of regional development in the Republic of Uzbekistan. Based on official statistical data for the period 2019-2023, changes in per capita income across regions are analyzed, and their relationship with economic activity, employment levels, and investment processes is identified. The study also substantiates the role of tax incentives in stimulating income growth and reducing regional disparities.

Key words: Population income, tax incentives, regional development, regional policy, income dynamics, investment activity, employment.

Аннотация. В статье анализируется влияние налоговых льгот на динамику доходов населения в условиях регионального развития Республики Узбекистан. На основе официальных статистических данных за 2019-2023 годы проведена оценка изменений доходов на душу населения в региональном разрезе и выявлена их взаимосвязь с экономической активностью, уровнем занятости и инвестиционными процессами. Обоснована роль налоговых льгот в стимулировании роста доходов населения и снижении региональных диспропорций.

Ключевые слова: Доходы населения, налоговые льготы, региональное развитие, региональная политика, динамика доходов, инвестиционная активность, занятость.

KIRISH

Aholining daromad olish darajasi va uning barqarorligi mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta'minlash hamda farovonlik holatini baholashda muhim mezon sifatida qaraladi. Daromadlarning shakllanish mexanizmlari, ularning manbalar bo'yicha taqsimlanishi hamda vaqt davomida o'zgarish tendensiyalarini o'rganish davlat iqtisodiy siyosatini samarali rejalashtirish uchun zarur axborot bazasini yaratadi. O'zbekiston sharoitida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholi turmush sharoitlarini yaxshilash, daromad keltiruvchi faoliyat turlarini kengaytirish va hududlar kesimida iqtisodiy faollikni oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilanmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2024-yilda respublikaning barcha 208 ta tuman va shaharlari bo'yicha iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillarni aniqlash hamda aholi daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan aniq tashabbuslarni ishlab chiqish vazifasining ilgari surilishi ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshirdi.

Daromadlar tarkibida yuz berayotgan sifati va miqdori jihatidagi o'zgarishlar iqtisodiyotda kechayotgan chuqur strukturaviy jarayonlarning natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Ish haqi, tadbirkorlik faoliyati va boshqa daromad manbalari ulushining o'zgarishi makroiqtisodiy holatning real ko'rinishini ifodalovchi muhim indikatorlar hisoblanadi. Shu sababli, aholi daromadlari tarkibi va ularning dinamikasini kompleks hamda ilmiy asosda tahlil qilish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga qaratilgan samarali qarorlar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda rasmiy statistik ma'lumotlarga tayangan holda daromadlar



o'zgarishining asosiy yo'nalishlari aniqlanib, ularning iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aholi daromadlari tarkibi va ularning o'sish dinamikasini tadqiq etishga oid nazariy yondashuvlar, metodologik asoslar hamda amaliy jihatlar ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda daromadlarning shakllanish manbalari, ularning o'zgarish qonuniyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri kompleks tarzda tahlil qilinib, mavzuning konseptual asoslarini rivojlantirishga xizmat qilgan. Ilmiy adabiyotlarda daromadlar tarkibini baholash nafaqat iqtisodiy ko'rsatkich sifatida, balki aholi farovonligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin etiladi.

Xususan, aholi daromadlari tarkibi va dinamikasini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro tadqiqotlarda Atkinson va Bourguignon (2015) turli mamlakatlar misolida daromadlar notekisligi va ularning vaqt bo'yicha o'zgarishini tahlil qilib, barqaror iqtisodiy o'sish sharoitida mehnat daromadlari ulushini oshirish hamda qayta taqsimlash mexanizmlarini kuchaytirish muhimligini asoslab berganlar [1]. Mualliflar daromadlar tarkibidagi nomutanosiblik ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, Ravallion (2016) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda uy xo'jaliklari daromadlarining shakllanishi va kambag'allik dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilib, mehnat bozori ishtiroki, ta'lim darajasi va hududiy rivojlanishdagi farqlar aholi daromadlarining barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [2]. Muallif ijtimoiy siyosatda daromatlarni oshirishga qaratilgan faol bandlik choralari ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi.

Boshqa bir tadqiqotda Ferreira, Messina va Rigolini (2018) rivojlanayotgan mamlakatlar misolida daromadlar mobilligi va o'rta sinf shakllanish jarayonlarini tahlil qilib, bandlik sifati, tadbirkorlik muhiti va institutsional omillar daromadlar o'sishining muhim determinantlari ekanini ko'rsatib berganlar [3]. Ularning xulosalariga ko'ra, barqaror daromad manbalarini kengaytirish iqtisodiy inklyuziyani ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Mahalliy tadqiqotlar doirasida esa A.A. Abdukarimov va M.S. Qodirova (2022) O'zbekiston sharoitida aholi real daromadlari, iste'mol xarajatlari va xarid qobiliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, daromadlar o'sishini ta'minlashda investitsiyaviy faollikni oshirish, hududiy bandlikni kengaytirish hamda ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surganlar [4].

Mazkur ilmiy manbalarni umumlashtirish natijasida aholi daromadlari dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali xususiyatga ega ekani, ularni tahlil qilish jarayonida mehnat bozori holati, demografik omillar, hududiy rivojlanish darajasi, uy xo'jaliklari tarkibi hamda davlat ijtimoiy siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks hisobga olish zarurligi aniqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy izlanishni olib borish jarayonida aholi daromadlarining tarkibiy tuzilmasi hamda ularning vaqt oraliqida shakllanib borish xususiyatlarini aniqlash maqsadida turli analitik yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, ko'rsatkichlarni o'zaro solishtirishga asoslangan qiyosiy tahlil, rasmiy statistik ma'lumotlarni qayta ishlashga yo'naltirilgan statistik usullar, iqtisodiy jarayonlarni yaxlit tizim sifatida baholash imkonini beruvchi tizimli yondashuv hamda daromadlarning o'zgarish sur'atlarini aniqlashga xizmat qiluvchi vaqt qatorlari tahlili qo'llanildi. Tadqiqot doirasida makroiqtisodiy indikatorlar, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdori, umumiy daromadlar tarkibining shakllanishi va ularning o'sish sur'atlari asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda aholi daromadlarining tarkibiy tuzilmasi hamda ularning vaqt davomida o'zgarish jarayonlarini kompleks tahlil etish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni asosli rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Daromad manbalarining kengayib borishi, mehnat faoliyatidan olinadigan daromadlarning barqaror o'sishi hamda ijtimoiy transfertlar mexanizmlarining samaradorligi mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Aholi daromadlarini shakllantirish va baholash amaliyotida qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- daromadlar tarkibiga oid statistik axborotlarning hududlar kesimida yetarli darajada chuqurlashtirilmaganligi;
- norasmiy mehnat bozorining salmoqli ulushi real daromad miqdorini aniqlashda aniqlik darajasini pasaytirishi;
- ijtimoiy to'lovlar va transfertlar tizimining hududiy jihatdan nomutanosib ishlashi hamda ularning manzillilik samaradorligining pastligi;



- iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bilan aholi daromadlari o'rtasidagi bog'liqlikning ayrim holatlarda yetarli darajada barqaror namoyon bo'lmashligi;

- bandlikni oshirishga yo'naltirilgan dastur va loyihalar natijadorligini baholash mexanizmlarining mukammal shakllanmaganligi.

Aholi daromadlarining shakllanish jarayoni va ularning tarkibiy siljishlarini tizimli hamda kompleks tahlil qilish hududlar darajasida farovonlikni oshirish, iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi omillarni aniqlash uchun zarur ilmiy-amaliy asosni yaratadi.

1-jadval. 2019-2023-yillarda O'zbekiston aholisining hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari

Hududlar	2019	2020	2021	2022	2023
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7728.7	9437.4	11315.8	13266.1	14570.7
Andijon viloyati	9640.4	10765.7	12964.4	15910.1	18257
Buxoro viloyati	12672.2	14680.8	18117	21470.5	23480.3
Jizzax viloyati	9345.5	10935.9	13366.6	15090.6	17326.2
Qashqadaryo viloyati	8828.9	10203.9	12302.9	14610.8	16095.1
Navoiy viloyati	16403.3	14938.7	25002.2	27129.1	31445.6
Namangan viloyati	8037.1	9267.5	11446.3	13782.5	15070.6
Samarqand viloyati	9074.9	10529.1	12833.5	15437.1	16886.8
Surxondaryo viloyati	8631.1	9748.4	11860.4	14520.4	15811.6
Sirdaryo viloyati	9163.4	10935.4	13007.7	14635.8	16808.3
Toshkent viloyati	10455.6	13130	16486.1	18319.2	20730.2
Farg'ona viloyati	7891	8858.9	11121.1	13844.4	15176.5
Xorazm viloyati	1082.9	12276.8	15763.6	19541.5	20076.6
Toshkent shahri	19551.6	25545.3	30841	37079.7	44427.9

Jadval ma'lumotlari 2019-2023-yillar davomida O'zbekiston hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarning barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatadi. Respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 2019-yildagi 10 202,8 ming so'mdan 2023-yilda 20 015,9 ming so'mga yetib, aholi daromadlarining sezilarli darajada oshganini ifodalaydi. Biroq hududlar kesimida daromadlar darajasi va o'sish sur'atlarida sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda.

Eng yuqori ko'rsatkichlar an'anaviy ravishda Toshkent shahrida qayd etilib, mazkur hududda 2023-yilda aholi jon boshiga daromad 44 427,9 ming so'mni tashkil etgan. Bu holat poytaxtda sanoat va xizmatlar sohasi, moliyaviy institutlar hamda investitsiya faolligining yuqori darajada rivojlanganligi bilan izohlanadi. Navoiy viloyati ham yuqori daromadli hududlar qatoriga kirib, tog'-kon sanoati va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish hisobiga 2023-yilda 31 445,6 ming so'mlik ko'rsatkichga erishgan. Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlarida daromadlar respublika o'rtacha darajasiga yaqin yoki undan biroz yuqori shakllanib, bu hududlarda turizm, savdo va xizmatlar tarmoqlarining rivoji muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Shu bilan birga, Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida daromadlar izchil oshgan bo'lsa-da, aholi sonining yuqoriligi sababli jon boshiga daromad ko'rsatkichlari respublika o'rtacha darajasidan pastligicha qolmoqda. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida iqtisodiy faollikning nisbatan pastligi, infratuzilma muammolari hamda sanoat tarmoqlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi daromadlar o'sish sur'atini cheklab kelmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasida ham daromadlarning barqaror o'sishi kuzatilgan bo'lsa-da, ekologik muammolar va ishlab chiqarish salohiyatining cheklanganligi tufayli eng past ko'rsatkichlar saqlanib qolmoqda. Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida sanoat zonalarining tashkil etilishi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlarining rivoji daromadlar o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xorazm viloyatida esa xizmatlar sohasi va kichik biznesning kengayishi natijasida so'nggi yillarda daromadlar tez sur'atlarda oshgan.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari barcha hududlarda aholi jon boshiga daromadlarning o'sib borayotganini tasdiqlaydi. Biroq hududlar o'rtasidagi daromadlar tafovutini qisqartirish, past daromadli



hududlarda investitsiya faolligini kuchaytirish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish davlat iqtisodiy siyosatining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari aholi daromadlarining hududlar kesimidagi shakllanishi va o'zgarishlari iqtisodiy faollik darajasi, bandlik tuzilmasi hamda investitsion jozibadorlik bilan bevosita va uzviy bog'liq ekanini ko'rsatdi. Olib borilgan tahlillar hududlar o'rtasida aholi jon boshiga daromadlar darajasi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini aniqlab berdi. Mazkur tafovutlar ishlab chiqarish salohiyati, mehnat bozori rivoji va infratuzilma darajasi bilan izohlanadi hamda ularni kamaytirish kompleks va tizimli iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Shu bois, hududiy nomutanosibliklarni bartaraf etish, iqtisodiy faollikni kuchaytirish va aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlash maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Hududlarda iqtisodiy o'sish nuqtalarini aniqlash va investitsiya loyihalarini kengaytirish jarayonida soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, daromadlar o'sish sur'atlari past bo'lgan Farg'ona vodiysi viloyatlarida tashkil etilayotgan kichik sanoat zonalari uchun foyda solig'i, mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha vaqtinchalik imtiyozlarning joriy etilishi investitsiya faolligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur imtiyozlar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududiy aholi daromadlarini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

2. Xizmat ko'rsatish sohasi va raqamli iqtisodiyot yo'nalishlarida yangi ish o'rinlarini yaratishda soliq rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Jumladan, yoshlar bandligini oshirishga yo'naltirilgan startup loyihalar va IT-soha subyektlari uchun daromad solig'i hamda ijtimoiy soliq bo'yicha imtiyozlar berilishi aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlaydi. Bu esa mehnat daromadlari ulushining oshishiga va hududiy iqtisodiy faollikning kuchayishiga olib keladi.

3. Hududiy darajada real daromadlarni aniqlash va baholashda soliq ma'murchiligini takomillashtirish muhim omil hisoblanadi. Yashirin bandlikni qisqartirish va rasmiy mehnat bozorini kengaytirish maqsadida kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soddalashtirilgan soliq rejimlari hamda soliq yengilliklarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu orqali daromadlar rasmiy hisobga olinib, iqtisodiy statistikaning ishonchliligi oshadi hamda hududiy iqtisodiy siyosatni samarali olib borish imkoniyati kengayadi.

4. Transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish jarayonida soliq imtiyozlaridan foydalanish hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Logistika markazlari, transport xizmatlari va infratuzilma obyektlarini barpo etayotgan subyektlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i hamda investitsion soliq kreditlarini qo'llash ishlab chiqarish va xizmatlar tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi. Natijada hududlarda iqtisodiy faollik oshib, aholi daromadlarining o'sishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Atkinson A.B., & Bourguignon F. (2015). Handbook of income distribution (Vol. 2). Amsterdam: Elsevier.
2. Ravallion M. (2016). The economics of poverty: History, measurement, and policy. Oxford: Oxford University Press.
3. Ferreira F.H. Messina J., Rigolini J., López-Calva L.F., Lugo M.A., & Vakis R. (2018). Growing more equal: A road map for reducing inequality in Latin America and the Caribbean. Washington, DC: World Bank.
4. Abdulkarimov A.A., & Qodirova M.S. (2022). O'zbekistonda aholi real daromadlari va turmush darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlili. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 4(2), 45-54.
5. <https://stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
